**Dastlabki ma’lumotlar**

# 2022 – yilning yanvar – sentabr oylarida Xorazm viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022 – yilning yanvar– sentabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 16 466,7 mlrd so‘mni yoki 2021 – yilning mos davriga nisbatan 101,7 %ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik hamda ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 16 042,6 mlrd so‘mni (100,9 %), o‘rmon xo‘jaligida – 105,4 mlrd so‘mni (102,2 %), baliqchilik xo‘jaligida – 318,7 mlrd so‘mni (162,5 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Xorazm viloyatining ulushi 6,8 % ni tashkil etdi.




**16 466,7** — **Xorazm viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi, mlrd so‘m**

01 — **16 042,6** — **Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar**

02 — **105,4** — **O‘rmon xo‘jaligi**

03 — **318,7** — **Baliqchilik xo‘jaligi**

## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati




## Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi (%)



2022– yilning yanvar– sentabr oylari yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 97,4 %i–dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 0,7 %i – o'rmon xo'jaligi, 1,9 %i – baliqchilik xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.

## Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi




2022– yilning yanvar– sentabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urganch (2044,3 mlrd so'm) va Hazorasp (1712,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Xiva shahri (49,1 mlrd so'm), Urganch shahri (351,7 mlrd so'm) va Tuproqqal'a tumanini (387,5 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Qo'shko'pir (113,5%), Urganch (112,7 %), Hazorasp (110,7 %) va Bog'ot (105,8 %) tumanlarida kuzatildi.

# Hududlar bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

2022– yilning yanvar– sentabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 15 937,5 mlrd so‘mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 100,9 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari– 6 353,1 mlrd so‘mni (96,6 %), chorvachilik mahsulotlari– 9 584,4 mlrd so‘mni (103,9 %) tashkil qildi.

# Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




## Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)



## Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi




Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 73,6 %i– dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 22,9 %i– fermer xo'jaliklariga, 3,5 %i– qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishi ko'rsatmoqda.

## Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)




## Dehqonchilik

2022– yilning yanvar – sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 6 353,1 mlrd so'mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 96,6 % ni tashkil etdi.

# Don

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**
**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan jami 363,2 ming t. don (2021– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 9,8 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Jami don ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili jami don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 65,3 % fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha don yetishtirish hajmi, t.



# Kartoshka

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2022– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 128,1 ming t. kartoshka (2021– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 20,2 %ga ko‘p) yetishtirildi. Kartoshka yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili kartoshka yetishtirish umumiy hajmidan 75,7 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha kartoshka yetishtirish hajmi, t.



# Sabzavot

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo‘jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**
- **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 403,7 ming t. sabzavot (2021– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 0,2 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 86,4 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha sabzavot yetishtirish hajmi, t.



# Poliz mahsulotlari

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 107,2 ming t. poliz mahsulotlari (2021– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 101,4 %) ishlab chiqarildi. Poliz mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, poliz mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmidan 54,2 % dehqon xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



# Xorazm viloyati bo‘yicha poliz mahsulotlari yetishtirish hajmi, t



# Meva












2022– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 129,9 ming t. meva (2021– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 103,1 % ) yetishtirildi. Meva ishlab yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili meva ishlab chiqarish umumiy hajmidan 64,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha meva yetishtirish hajmi, t



# Uzum

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 35,6 ming t. uzum (2021– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 103,6 % ) yetishtirildi. Uzum yetishtirish ko‘rsatkichlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 75,2 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha uzum yetishtirish hajmi, t



## Chorvachilik



2022– yilning yanvar– sentabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 9 584,4 mlrd so‘mni yoki 2021– yilning mos davriga nisbatan 103,9 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 60,1 %ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste‘mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.




2022– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 133,2 ming t. go‘sht (2021– yilning yanvar – iyuniga nisbatan 4,1 %ga ko‘p), 899,8 ming tonna sut (1,0 %ga ko‘p), 397,9 mln dona tuxum (1,3 % ga ko‘p) ishlab chiqarilgan, 13 906,7 t. baliq (65,6 %ga ko‘p) ovlangan.

# **Go‘sht *(tirik vaznda)***

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 133,2 ming t. go‘sht (2021– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 4,1 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Go‘sht ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 93,1 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



# Xorazm viloyati bo‘yicha go‘sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, t.



# Sut

**Hajmi, ming t.**




**O‘sish sur’ati**




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 899,8 ming t. sut (2021– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 1,0 % ga ko‘p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlili, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 94,9% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha sut yetishtirish hajmi, t.



# Tuxum












2022– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 397,9 mln dona tuxum (2021– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 1,3 % ga kam) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 68,5 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Xorazm viloyati bo‘yicha olingan tuxum hajmi, ming dona



# Baliq

### Hajmi,tonna




### O‘sish sur’ati




### Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




Fermer xo‘jaliklari

Dehqon(shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari

Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning yanvar– sentabr oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 13 906,7 tonna (2021– yilning yanvar– sentabriga nisbatan 65,6 % ga ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 73,0 % fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.



## Xorazm viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, t.



# Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2022– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,2 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,0 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim. Shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 14,7 % fermer xo'jaliklariga, 81,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 4,0 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Otlar umumiy sonidan 13,5 % fermer xo'jaliklariga, 85,6% dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,9 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 13,4 % fermer xo'jaliklariga, 62,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 24,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

# Yirik shoxli qoramollar

**Soni, ming bosh**




**O'sish sur'ati**




**Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qora mollarning umumiy bosh soni 945,2 mingtaga etdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 16,1 mingtaga (1,7 %) ko'paydi.

2021– yilning 1– oktabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 91,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



## Xorazm viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh



# Sigirlar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 360,7 mingtaga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni 7,3 mingtaga (2,1 %) ko‘paydi.

2022– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami sigirlarning 91,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelmoqda.



# Xorazm viloyati bo‘yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh



# Qo‘y va echkilar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon(shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2022– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlili, jami qo‘y va echkilarning 81,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Xorazm viloyati bo‘yicha qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh



# Otlar

Soni, bosh




O‘sish sur’ati




Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2022– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 5,4 mingtaga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni 67 boshga (1,3 %) ko‘paydi.

2022– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlar, xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, jami otlarning 85,6 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ta‘kidlash lozim.



# Xorazm viloyati bo‘yicha otlarning umumiy bosh soni, bosh



# Parrandalar

**Soni, ming bosh**




**O‘sish sur’ati**




**Bosh sonining xoʻjalik toifalari boʻyicha taqsimlanishi**




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 6 271,5 mingtaga yetdi.

2021– yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni 276,7 mingtaga (4,6%) ko‘paydi.

2022– yilning 1– oktabr holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 62,0 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim.



# Xorazm viloyati bo‘yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh




Qishloq xo‘jaligi va ekologiya statistikasi bo‘limi

- 62-224-64-96
- 71-202-78-89